



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA OILANI ROLI

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasи v.b. dotsenti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jamiyatning ertangi kuni, kelajagini belgilab beruvchi, davlatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va rolini mustahkamlaydigan yoshlarni din, axloq, huquq, iqtisod, siyosat, ta’lim va tarbiya, shuningdek, ma’naviy madaniyatning boshqa sohalarida yetuk bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashi, ushbu sohalarda mustaqil fikrda ega bo‘lib, ularni o‘z faoliyatida faol qo’llay bilish qobiliyati shakllanishida muhim omil hisoblangan oila, uning xususiyatlari, oila modellari, Sharq va G’arbdagi oilaga munosabat masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, madaniyat, ma’naviy madaniyat, oila, tarbiya, ta’lim, siyosat, iqtisod, din, oila modeli, an’naviy oila, zamonaviy oila, Sharqona oila, Ga’rbona oila.

Yoshlar ma’naviy madaniyati jamiyat ma’naviy hayotining bir bo‘lagi bo‘lib, jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar shu jamiyat tarbiyalanuvchilari bo‘lmish yoshlar faoliyatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar ma’naviy madaniyatini tahlil etishda uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish masalani yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, oila yoshlar ma’naviy madaniyati va mentalitetini shakllantiruvchi kichik ijtimoiy makondir. Oiladagi iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy munosabatlardagi mehr-oqibatning shakllanishiga ta’sir etadi. Ko‘p hollarda oila a’zolari farzand tarbiyasini faqat bolalarni moddiy ta’minalash bilan bog‘laydilar va buning oqibatida oilada farzandlarning yoshi ulg‘ayishi jarayonida begonalashuvi avj oladi. Shu ma’noda A. Fitratning “Oila” asarida farzand tarbiyasida nuqsonlarning bo‘lishi, nafaqat oila parokandaligiga balki, jamiyat taraqqiyotining tanazzuliga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi.[1] Shu bois, bugungi yangi O‘zbekistonda yosh oilalardagi mehr-oqibatni saqlash, ajrimlarning oldini olish, ijtimoiy faol yoshlarni ulg‘aytirishga alohida e’tibor



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

berilmoqda. Bizning fikrimizcha, kam ta'minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarga davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-sonli «Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan har bir viloyat hokimligiga 100 nafarga qadar, har bir oliy ta'lim massasasalariga 50 nafarga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini to'lab berish tizimi joriy qilindi.[2] Shuningdek, 2022/2023-o'quv yilidagi barcha magistraturada tahsil olayotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarlari davlat tomonidan to'lab berilishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir.

Tarixdan ma'lumki, Sharqu G'arbda hamisha oila muqaddas hisoblangan. Ayniqsa, Sharq jamiyatlarida oilaning mustahkamligiga katta e'tibor qaratilgan. Negaki oila barqarorligi jamiyat barqarorligining asosi, mustahkam, barqaror oilasiz jamiyat barqarorligiga erishib bo'lmashagini Sharqda allaqachonlar yaxshi tushunib yetishgan. Bundan tashqari, jamiyat uchun kerakli fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilar ham xuddi shu oilada yetishib chiqar edilar. Chunki oilada o'rnatilgan qat'iy tartib-intizom, yoshlarning kattalarga, farzandlarning ota-onaga hurmat-ehtirom saqlashi kabi qadriyatlar bilan o'stirilgan farzandlar kelajakda, mustaqil hayotga qadam qo'ygan paytlarida ham xuddi shu qadriyatlarga amal qilib yashaydilar.

So'nggi yillarda yurtimizda gender tengligini ta'minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo'g'in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratilganini alohida ta'kidlash lozim. Lekin bu islohotlar bugungi kundagi barcha oilalarning baxtli oila bo'lishi uchun yetarli bo'lmayotganligini oilalar orasida ajrashishlar sonining ortib borayotganligi ko'rsatib turibdi. Shu sababli ham oila institutini chuqurroq o'rganish, ajrashishlarning sabablarini aniqlash va eng ko'p uchraydigan sabablarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil qilish muhim masaladir. Xususan, O'zbekistonning 2022-yildagi asosiy demografik ko'rsatkichlariga ko'ra, 2022-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 296,7 mingtani tashkil etib, so'nggi 5 yilda



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

sezilarli kamaygani kuzatilgan. Misol uchun, 2018-yilda 311,4 mingta, 2019-yilda 310,9 mingta, 2020-yilda 296,8 mingta, 2021-yilda 305,2 mingta nikoh qayd etilgan. Mazkur yangi qurilgan nikohlarning hammasi ham baxtli oila bo‘la olmayotganligi jamiyat hayotining asosiy muammosidir. 2022-yilda nikohdan ajrashishlar soni 48,7 mingtani tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli ko‘paygani kuzatildi. Misol uchun, 2018-yilda 32,3 mingta, 2019-yilda 31,4 mingta, 2020-yilda 28,2 mingta, 2021-yilda 39,3 mingta ajrashish qayd etilgan.

2022-yilda nikohdan ajralishlarning 30,2 mingtasi shaharda, 18,5 mingtasi qishloq joylarida kuzatilgan.[3]

Tahlillarga ko‘ra, 2021-yilning birinchi 4 oyi davomida 12 806 ta oilaviy ajrashish kuzatilgan. Bu o‘tgan davrga nisbatan 4897 taga ko‘p.

2021-yilning 4 oyi davomida qayd etilgan 12 806 ta oilaviy ajrashishlar orasida 30 yoshgacha bo‘lganlarning oilaviy ajrashishlari soni 3674 tani tashkil etadi. Oilaviy ajrashishlar asosan quyidagi sabablarga ko‘ra sodir bo‘lgan: (1-jadval)

1-jadval

Er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchilik (xarakter to‘g‘ri kelmasligi)	3-shaxs aralashuvi	Yoshlarning oila qurishga tayyor emasligi	Moddiy yetishmov-chilik	Bepushtlik	Ichkilikbozlik, giyohvandlik yoki boshqa zararli odatlar	Ichki va tashqi migratsiya
48,4 foiz	17,4 foiz	11 foiz	6,3 foiz	5,3 foiz	5,5 foiz	3,5 foiz

Yuqoridagi ajrashishlar oqibatida birgina 2022-yilning o‘zida 38867 nafar bolalar tirik yetim bo‘layotganligi achinarli holdir. Mamlakatimizda bu kabi salbiy holatning kelib chiqishining sabablaridan yana biri bu milliy mentalitetimizdagi oila muqaddasligi xususiyatining chet el madaniyati ta’sirida o‘zgarishi va yoshlarning mentalitetida individualizmning ortib borishi oqibatida sodir bo‘lmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun esa tizimli ishlarni tashkil etish, jamiyatning



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi, ularni tarbiyalashga qaratilgan sohalarini tubdan yangilash lozim.

Dunyo olimlarining o'tgan 100 yillikda namunali oilalarga bag'ishlangan tadqiqotlarida aniqlangan xususiyatlar global miqyosda mustahkam oilalarning fazilatlar to'plami deyarli bir xilligini ko'rsatdi.

Namunali oilaga ta'rif berishar ekan, olimlar "shaxsiy hayotga yaxshi moslashgan va o'z ishida qoniqarli natijalarga erishgan shaxslarni yetishtirgan oilalar", "baxtli oila barpo etishda jamiyatga o'rnak bo'ladigan oila"larni sanashadi. "Oilada qanday fazilatlar ustuvor va qanday mezonlar ustun bo'lsa oila baxtli bo'ladi?" degan savolga deyarli barcha millatlar ushbu mezonlarni sanaydi. Jumladan:

- minnatdorlik va mehr-muhabbat (g'amxo'rlik, do'stlik, individuallikka hurmat, xushchaqchaqlik, hazilkashlik);
- mas'uliyat va javobgarlik (ishonch, rostgo'ylik, sadoqat, halollik, saxiylik);
- ijobiy muloqot (maqtovlar aytish, his-tuyg'ularini izhor qilish, ayblamaslik, murosaga kela olish, norozilikni qabul qilish);
- birgalikda vaqtichog'lik qilish (muntazam sifatli vaqt o'tkazish, yaxshi narsalarga vaqt ajratish, o'zaro muloqotdan zavqlanish, oddiy yaxshi damlar);
- ruhiy farovonlik (umid, iymon, rahmdillik, umumiyl axloqiy qadriyatlar, odamgarchilik);
- stress va inqirozni samarali boshqarish qobiliyati (moslashuvchanlik, inqirozni imkoniyat sifatida ko'rish, inqirozlardan birga kuchli bo'lib o'tish, o'zgarishlarga ochiqlik, sabr-toqatlilik).

Oilani birlashtiruvchi va baxtli qiluvchi xususiyatlar bir xil va uyg'un bo'lsa-da, oila modellarining jihatlari turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi, jumladan:

- Osiyo xalqlari, xusan, xitoyliklar uchun oila a'zolarining shaxsiy manfaatlari hamisha oila ehtiyojlariga bo'ysundirilgan. Xitoyda oila kichik davlat hisoblanadi, oila yaxshi – davlat yaxshi g'oyasi hukmron.
- G'arbiy Yevropa davlatlarida namunali oilalarda oila a'zolari o'rtasida tenglik, bir-birlarining hayotiy tanlovlari hurmat, balog'atga yetgach iqtisodiy mustaqillik, ta'limga e'tibor, oilaviy an'analarga ehtirom ko'rsatilishi kuzatiladi.
- Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etgan mamlakatlarda namunali oila hayotning barcha jabhalarida jamiyatga o'rnak bo'ladigan, shu



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

qatorda Yaratuvchining amrlariga bo‘ysunuvchi, alohida a’zolar va butun oilaning ta’lim olishida muvaffaqiyat qozongan oiladir.

Shunday qilib, G‘arb va Sharq oilalarida namunali oilada oila a’zolarining vazifalari bo‘yicha bir qancha farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu farqli jihatlar har bir mintaqaning mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqqan holda er va xotinning qaror qabul qilishdagi o‘rni, farzandlar va ota-onas orasidagi burchlar, erkinliklar darajasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birdamlik, ahillik, sadoqat kabi fazilatlar esa butun dunyo oilalari mustahkamligini ta’minlab turuvchi ustunlar qatoriga kiradi. Oilalardagi o‘zaro munosabatlarda qishloq va shahar hududidagi oilalarning o‘zaro munosabati yuqoridagi Sharq va G‘arb mintaqalariga oid oilalarning o‘zaro farqini ko‘rsatuvchi bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Sababi shahar hududida istiqomat qiluvchi oilalar jahon madaniyatini tez o‘zlashtirayotgan va yangiliklarni o‘z hayotlariga kiritayotgan jamiyat bo‘lagi sifatida ko‘zga tashlanadi. Qishloq hududlarida esa an’naviy madaniyat va munosabatlar bir qancha darajada saqlanib qolmoqda. Bu haqda faylasuf F.Musayev «An’naviylik shaharga qaraganda qishloqda ko’proq saqlangan, qishloqda yoshlarning katta qismi o’z urf-odatlarini saqlashga harakat qiladi»[4] degan fikrni bildiradi.

Umuman, bugungu kunda oilaviy munosabatlarning mazmuniga ko‘ra oilalar ikki ko‘rinishda farqlanadi. Birinchi ko‘rinish an’naviy o‘zbek oilalari bo‘lib, bu oilalarda munosabatlar yakka oila a’zosining ya’ni oila boshlig‘i – otaning hukmronligiga asoslangan an’naviy oilalardir. Ushbu oilada otaning o‘rni yuqori bo‘lib, boshqa oila a’zolari otaga bo‘ysunadi. Bu oila shakli asosan Sharq mamlakatlari, xususan, o‘zbeklarning tarixan shakllangan oila shakli hisoblanadi. Tarixda yurtimizdan chiqqan olimlar, shoirlar oila haqida to‘xtalganda, oila a’zolarining burchlari haqida fikrlar bildiradi hamda xotin burchlari haqida asosan, oiladagi tozalik-ozodalik, tarbiya va tartib-intizomni saqlashlik to‘g‘risida fikrlar bildiriladi. Bu xususda Alisher Navoiy «Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy bekasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Xusnli bo‘lsa – ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa – jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi»[5] degan fikrlarni aytib o‘tadi.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

Ikkinci oila shakli zamonaviy oilaviy munosabatlar o'rnatalgan, oila a'zolari o'rtasida tenglik, o'zaro hamfikrlik shakllangan, barcha oila a'zolarining fikrlari inobatga olinadigan zamonaviy oilalardir. Bu oila shakli asosan g'arb madaniyati ta'siri ostida shakllangan oila ko'rinishi hisoblanadi. G'arb jamiyatida shakllangan mentalitetning asosiy xususiyatlaridan biri oilaviy munosabatlarda tenglik, oila a'zolarining o'zaro bir-biri bilan bamaslahat ish olib borishidir. Mazkur masalada yangi davr faylasuflaridan Jan Jak Russo quyidagi fikrlarni bildirgan. Ya'ni «Barcha jamiyatlarning eng qadimiysi va yakkayu yagona tabiysi – oiladir. Oila ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy jamiyatning bir timsolidir. Hukmdor go'yoki otadir, xalq esa bolalardir va hamma teng va hur bo'lib tug'ilgan»[6] deydi. Bu ta'rifdan ham ko'rini turibdiki, oila a'zolarining tengligi muhimdir. To'g'ri, G'arb oilalarida ham ota oila boshlig'i, oilaning iqtisodiy ta'minotchisi sifatida qaralsa ham, lekin oilaviy masalalarni hal etishda, oila uchun zarur qarorlarni qabul qilishda barcha oila a'zolarining fikrlarini inobatga olish ushbu oila ko'rinishi uchun eng muhim xususiyatdir.

Yuqoridagi birinchi jadvalda oilaviy ajrashishlarga sabab bo'layotgan omillardan er-xotin kelishmovchiligi, ya'ni xarakter to'g'ri kelmasligi eng ko'p ko'rsatkichni (48 foiz) tashkil etmoqda. Bu yerda qanday xarakter bugungi kunda er va xotin o'rtasida bir-biriga mos kelmayapti degan savol tug'iladi. Bizning fikrimizcha, an'anaviy oilada o'sib-ulg'aygan qiz yoki o'g'il oilaviy munosabatlarda otaning roli kuchliligi, oilada otaning so'zi ikki qilinmasligini ko'rib katta bo'ladi va bu munosabatga keyingi hayotida ham amal qilishga intiladi ya'ni bunday oilalarda an'anaviy munosabatlarga amal qilish kuchli bo'ladi. Zamonaviy oilada katta bo'lgan farzand esa oilaviy munosabatda o'zaro teng huquqlilik, oilaga tegishli muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda o'zaro hamfikrlilikni ko'rib tarbiya topadi va yoshlikdan oila a'zolari uning fikrlarini tenglab va inobatga olgan holda u bilan hisoblashishga o'rgatadi. Mazkur ikki xil munosabat mavjud bo'lgan oila farzandlarida ikki xildagi bir-biriga o'xshamagan xarakter shakllandi. Shunday bir-biriga mos kelmaydigan xarakterga ega yoshlarning turmush qurishi ularning hayot davomida bir-birlaridagi mavjud xarakterga moslasha olmay, tushunmasdan oxir-oqibat ajrashishga olib kelmoqda.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

2021-yilda O‘zbekistonda zamonaviy namunali oila mezonlarini aniqlash maqsadida Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan «O‘zbekistonda zamonaviy namunali oila qanday bo‘lishi kerak?» degan savol asosida Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida 1380 ta oila o‘rtasida tadqiqot, ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro va milliy tajribani tadqiq etib, Yangi O‘zbekistonning zamonaviy namunali oila modelining ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqishdan iborat edi.

«Oilangizni namunali deb hisoblasa bo‘ladimi?» degan savolga javoblardan hududlararo katta farq kuzatilmadi, qishloq va shaharlarda yashaydigan oilalarning javoblarida ham katta farq aniqlanmagan. Shu bilan birga, kam ta’minlangan oilalarning atigi 36% i o‘zini «namunali oila» deb hisoblaydi, farovon oilalarda esa bu ko‘rsatkich – 95% ni tashkil etgan. Bu namunali oila modelida «moddiy farovonlik» mezonining yuqori ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar assosida biz mamlakatimizdagi namunali oilaning mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

Axloqiy tomondan:

- oila a’zolarining munosabatida – bir-biriga hurmat va teng huquqlilikning ustunligi;
- yoshi kattalarga – itoatkorlik;
- oilaviy an’analar – vafo, sadoqat, mehribonlik;
- yoshi kichiklarga – bolaning har tomonlama tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qarash;
- o‘rtacha farzand ko‘rish mezoni – 3 nafar va undan ortiq;
- Din borasidagi qadriyatlarda – bir dinga e’tiqod.

Moddiy jihatdan:

- moliyaviy holati – asosiy ehtiyojlari ta’minlangan.

Ijtimoiy jihatdan:

- oilaviy nikoh turi – norasmiy nikohlar taqiqlangan;
- ta’lim darajasi – o‘rta-maxsus, oliy;
- xayr-saxovat ishlarini doimiy amalga oshirish;
- ma’lum sport turi bilan doimiy shug‘ullanish.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

Ushbu mezonlarga amal qilinsa, har bir oila o‘zining farovonligi yo‘lida hamjihatlikda harakat qilsa va “oila – muqaddas” tushunchasi insonlar ongiga o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazib tursa, jamiyatimizda namunali oilalar ko‘payaveradi. Shu ma’noda oila mustahkamligini asrab-avaylash kabi milliy mentalitetimizdagi ijobiy xususiyatlarning jamiyat hayotidagi keng targ‘ibotini amalga oshirish muhim masaladir.

Oilada tarbiyalanayotgan yosh avlod shu oiladagi ijobiy yoki salbiy muhitning ta’siri ostida o‘z qadriyatlarini, hayotiy ideallarini shakllantiradi. Agar oilada ijobiy muhit hukmron bo‘lsa, bu oilada tarbiya topayotgan bola jamiyat uchun kerakli vatanparvarlik, halollik va adolatlilik kabi ijobiy fazilatlarga ega shaxs bo‘lib shakllanadi. Lekin oilada salbiy muhit hukmron bo‘lsa, bunday oilada tarbiyalangan farzand ko‘p hollarda jamiyat uchun zararli ishlarni amalga oshiruvchi, deviant xulqqa ega avlod bo‘lib voyaga yetadi.

Ma’lumki, G‘arb mamlakatlarida asosiy urg‘u har bir shaxsning ozodligi, hurligi va erkinligiga qaratilgan. Oila esa kishilarni ma’lum bir majburiyatlar bilan bog‘laydi. G‘arb jamiyati inson erkinligiga asosiy e’tibor qaratish evaziga oila deb atalmish noyob qadriyatdan judo bo‘lmoqda. Biz sharqliklar esa oilani eng muqaddas qadriyatlardan biri sifatida qadrlab kelganimiz. Sharqda oilaviy rishtalar doimo muqaddas hisoblangan. Oilaviy rishtalarni uzish esa jamiyat tomonidan hamisha qoralab kelingan. Bu xususiyat milliy mentalitetimizning asosiy ijobiy tomoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 61.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажхамасининг 2021 йил 17 сентябрдаги 585-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5640194>
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/02/01/marriage-stats>.
4. Мусаев Ф.А. Духовные изменения в селькой молодежной среде Узбекистана в условиях рыночных отношений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Ташкент: 1997. – С. 18.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

-
5. Saifnazarov I. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2018. – B. 17.
 6. Saifnazarov I. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2018. – B. 15.